

NAZAR ESHONQULNING «XAROBA SHAHAR SURATI» HIKOYASIDA SURAT OBRAZI TAHLILI

Yaxshiyeva Omina Ulug‘bek qizi ¹

¹ Andijon davlat universiteti Filologiya fakulteti

3-kurs talabasi

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:18.05.2025

Revised: 19.05.2025

Accepted:20.05.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*o‘zbek nasri
an‘analari, surat obrazi,
ramziy obrazlar,
Tursoriya, Susambil.*

Ushbu maqolada o‘zbek nasrining taniqli vakili Nazar Eshonqul ijodiga, xususan uning “Xaroba shahar surati” hikoyasidagi surat obrazi tahliliga e‘tibor qaratilgan. Muallif hikoyada yetakchi ramz bo‘lgan surat orqali inson ruhiyatining botiniy iztiroblari, ichki qarama-qarshiliklari, orzu va armonlarini yoritishga harakat qilgan. “Tursoriya” deb nomlangan xaroba shahar obrazi qahramonning ruhiy holatini, umr davomida yo‘qotilgan ma‘nolarni aks ettiruvchi ramz sifatida talqin qilinadi.

KIRISH. O‘tgan asrning 80-90-yillariga kelib o‘zbek nasrining yangilanishi adabiy an‘anaviy yo‘ldan birmuncha chekindi. Nasrimizda XIX asr oxiri XX asr boshlarida G‘arbda paydo bo‘lgan adabiy oqimga o‘xshash sifatlar paydo bo‘la boshladi. Shu o‘rinda o‘zbek nasri, o‘zbek hikoyachiligiga o‘zgacha ovoz va o‘zgacha ruh olib kirgan iste‘dodli yozuvchi Nazar Eshonqul ijodi haqida eslab o‘tishimiz zarur.

Nazar Eshonqul ko‘plab qissa va hikoyalar muallifi. Uning asarlarida insondagi murakkab his-tuyg‘ular, ruhiy kechinmalar, uning fikr-o‘ylari, hamda xalq og‘zaki ijodi namunalari mujassamlashgan. U o‘z hikoyalarida xalq og‘zaki ijodi — folklorga oid ko‘plab motivlardan foydalanadi. Asarlarida inson ruhiy holatini turli badiiy vositalar orqali tasvirlaydi. Inson botinidagi isyon, hamda uni qurshab turgan iztiroblar ranglar, hidlar, suratlar orqali ifoda etiladi. O‘zbek adabiyotida, xususan, folklorda faol qo‘llangan motiv obrazlardan biri — suratdir. Nasrimiz tarixida suratning turli shakllari — qog‘ozga chizilgan surat, uzukdagi surat, toshga o‘yilgan surat, gilamga to‘qilgan surat va yana boshqa ko‘plab xillari uchraydi. Ushbu suratlar asarlarda mohiyatan turli vazifalarni

bajaradi. Nazar Eshonqul ijodida ham surat obrazi tez-tez ko'zga tashlanadi. «Qora kitob», «Tobut shahar», «Maymun yetaklagan odam» hikoyalarini bunga misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Ayniqsa, yozuvchining «Xaroba shahar surati» hikoyasida surat obrazi yetakchi obraz hisoblanadi. Hikoya bosh qahramoni X. xonasidagi suratni tasvirlar ekan, surat xuddi o'zining bir qismidek his qiladi. «Suratda hali me'yoriga yetmagan xira bo'yoqlar fonida vayronaga aylangan shahar burdalangan jasaddek bo'rttirib tasvirlangandi, ko'ngilni g'ash qiladigan bu tahlika va tanazzul bilan birga yurakni oziqlantiradigan, qaragan sayin yana qarayveradigan qandaydir mavhum mahliyolik sizning qalbingizning eshigini tinmay qoqib turardi»,⁷⁰ — deya unga Tursoriya deb nom beradi. U o'zining ruhiyati bilan bu xaroba shahar o'rtasida qandaydir o'xshashlik borligini his etadi. U ushbu suratdagi xaroba shahar bir paytlar go'zal va ulug'vor bo'lganiga ishonar, erta-yu kech faqat shu shahar haqida o'ylardi, Tursoriya uning orzu va xayollarining olis, maftunkor manziliga aylangandi. Biroq bu inson uchun Tursoriya qanchalik ahamiyatli bo'lsa, qanchalik qiziqтира, uning bu holati o'zgalarni shunchalik ajablantirar edi. U tanishlarini hech qachon Tursoriyaga qiziqтира olmaydi, biri ishi ko'pligini, biri bunday jumboqlarni izlaydigan yoshdan o'tganini, biri Tursoriyadan ham muhimroq tashvishlari borligini aytib jo'nab qoladi. Ayniqsa, professorning Tursoriya degan shahar shunchaki cho'pchak ekanligini aytganida hayron bo'ladi. Asar qahramoni X. ning Tursoriya vayron bo'lishidaj oldingi holatini tasvirlagani e'tiborimni tortdi. «Men ularga Tursoriya haqida, uning yashil bog'lari, zangor osmoni, tuman qoplagan tosh ko'chalari, odamzotning qudratini namoyish etish uchun qurilgan minoralari, shahardan uzoqlarda ham hidi ufurib turadigan xuddi qizlari kabi durkun va nafis gullari, qirmizi tulporlar minib yuradigan yigitlari, xayoldan ko'ylak qilib kiygan qizlari, hilol bilan birga hilpiraydigan tug'lari, sahar chog'lari xo'rozlardan ham oldin odamlarni uyg'otadigan azonlari hamda bolaning ko'zlari kabi tiniq va ma'sum daryolari haqida gapirib berar va ularni Tursoriya boshqalarning ham e'tiborini tortsin deya ko'pincha o'zim to'qirdim». ⁷¹ X. hikoyadagi shaharni mukammal darajadagi, har bir inson orzusidagi, baxtiyor yashaydigan yurt sifatida tasvirlaydi. Va bu uning xayollarida, bu tasvirlarni o'zi to'qib chiqarardi. Tasvirni o'qir ekanman, «Susambil» o'zbek xalq ertagi yodimga tushdi. «Susambil degan mamlakat bor ekan, u joyda o'tning bo'lig'i, suvning tinig'i mo'l ekan. Unda birov bilan birovning ishi ham yo'q, azob-uqubat ham yo'q, ovqat mo'l, qorning doim to'yib yuradi»⁷²

⁷⁰ N. Eshonqul. Momoqo'shiq. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2019. 41-bet.

⁷¹ N. Eshonqul. Momoqo'shiq. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2019. 45-bet.

⁷² <https://tafakkur.net/susambil/xalq-ogzaki-ijodi.uz>.

Susambil va Tursoriyaning tasvirlari aynan bir xil bo'lmasa-da, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan bir jihat bor. «Baxtli hayot kechirish» semasi ikki shaharni birlashtirib turibdi. Ertakda hayvonlar hayotdagi qiyinchiliklar, baxtsizliklardan bezib Susambilni orzu qilishadi. Hikoyada ham qahramon suratdagi shaharning bir vaqtlar obod, go'zal va ulug'vor bo'lganiga, orzular ushaladigan, baxtga yetib borsa bo'ladigan yurt ekanligiga ishonadi. Bir qarashda ikki shaharning ham tutash nuqtalari «Utopiya»ni yodga soladi. «Utopiya» bu ingliz yozuvchisi Tomas Mor qalamiga mansub asar bo'lib, yunon tilidan Outopos — hech qayerda yo'q maskan, xayoliy ushalmas orzuni aks ettiruvchi asar. «Utopiya» real joy emas, balki insonlar orzu qiladigan mukammal jamiyat timsolidir. Demak, Tursoriyani ham inson orzulariga yetisha oladigan, baxtiyor yashaydigan xayoliy maskan, deya faraz qilishimiz mumkin. Lekin u nega xaroba holga keldi? Uni kim vayron qildi? Bunga hikoyani o'qish jarayonida javob topamiz.

Avvalo, X. xaroba shaharga nega «Tursoriya» deb nom berdi ekan? So'zning lug'aviy ma'nosi qanday? Yozuvchi nima sababdan shahar uchun bunday nom bergani bizga qorong'u. So'zning lug'aviy ma'nosini turlicha talqin qilishimiz mumkin. Dastlab so'zni ikki qismga ajratib olishimiz qulayroq bo'ladi. «Tur» va «Soriya». «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «Tur» so'zi quyidagicha izohlangan:

1) T U R I - Belgilari, xossalari, vazifasi va sh.k. jihatdan umumiy bo'lgan bir guruh yoki butunlik tashkil etgan narsalar, hodisalarning xili, navi, ko'rinishi. Poyabzal turlari. Gazlama turlari. Sport turlari;⁷³

2) T U R II - Oyoq uzra tik vaziyatda bo'lmoq; Bir joyda turib qolmoq;

Bundan tashqari tilimizda «Tur» so'zining «Umr ko'rmoq, yashamoq» ma'nolari ham bor. Masalan, Bolasi turmay-turmay, yakka-yolg'iz arzandasi Tursunboyni, shamolni ham ravo ko'rmay, avaylab boqib katta qildi. (S. Ahmad, Ufq)

Mullajon amakim bozorga shunday yaqin Gulzorobod mahallasida turadilar.

(E. Raimov, Ajab qishloq)

So'zning aynan shu ma'nosi biz izlayotgan ma'noga yaqin turadi. Bundan tashqari «Tur» so'zining « Turk», «Turon» so'zlari bilan aloqadorligi ham bo'lishi mumkin. Endi so'zning keying qismiga to'xtalsak, «Soriya» bu joy nomlariga qoshiluvchi qism bolishi ham mumkin. «Ossuriya», «Mesopotomiya» kabi. Agar ikki qism ma'nolarini birlashtirsak, umuman, insonlar umr o'tkazadigan joy, yoki bir joyda turib qolgan shahar

⁷³ A. Hojiyev. A. Nurmonov va boshq. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent. 2001. 263-bet.

degan ma'nolarni topishimiz mumkin. Bulardan qaysi biri «Tursoriya»ga mos ekanligini aniqlash uchun hikoyani yaxshilab tahlil qilish zarur.

Bilamizki, surat, albatta, ramziy obraz. Lekin u nimaning ramzi? Bu savolga javobni hikoyaning o'zidan topamiz.

« Men uning yuziga yalt etib qaradim va professorning yuzida ham xonamdagi suratda his etgan xaroba shaharning aksini ko'rib bir zum toshday qotib qoldim. Yo'q, bu yerda hech qanday ro'yo yo'q edi, professorning qisilgan nursiz ko'zlarida, ajin bosgan qarimsiq yuzida, alamzadalik va izzatparastlik aks etgan lablarida men bu xarobani aniq ko'rgandek bo'ldim».⁷⁴ Hikoyada keltirilgan ushbu parchada xaroba shahar endi professorning yuziga ko'chyapti. U yillar davomida zafar quchish niyatida orqa-oldiga qaramay odimlab ketavergan. Ko'p bora muvaffaqiyat qozongan, katta shuhrat obro'-e'tiborga erishgan. Bularning bari tashqaridan haybatli ko'rinsa-da, aslida umrining devorlari nurashi, ko'chib tushishiga sabab bo'lgandi. Demak, bundan kelib chiqib ayta olamizki, Tursoriya bu inson o'zligi, uning hayoti, yashab o'tgan umri. Yillar davomida bosib o'tgan izlari. Har bir inson o'z hayotini o'zi quradi. Dunyoga kelganidan boshlab hayotining so'nggi kuniga qadar o'z g'ishtlarini terib boradi. Bizning har bir qilayotgan xatti-harakatlarimiz bu shaharning, uyni bir qismi, bo'lagidir. Lekin inson o'zligini unutib mol-dunyo, obro'-e'tibor yig'ishga shu darajada kirishib ketadiki, o'z umrini, o'z Tursoriyasini xarob ahvolga keltirib qo'yadi. Dunyo ishlariga berilib ketganidan yuqorida aytganimizdek, biri ishi ko'pligini, biri Tursoriyadan ko'ra muhimroq ishlari borligini, yana biri esa bunday narsalarni o'ylashga yoshi o'tib qolganini bahona qiladi. «Nahotki Tursoriyasiz yashab bo'lsa?» — drgan edi X. o'ziga o'zi. Chindan ham inson o'zligisiz yashay olishi mumkinmi? Asarda professor haqida shunday deyilgandi. « Mening nazarimda, u asli o'z umr shahrini qurmagan, aksincha vayronaga aylantirgan edi, bu naqadar dahshat deb o'ylagandim men professorning olovi o'chgan o'choqdek taftsiz ko'zlariga qarab turib. Izlagan narsasini topolmagan, deya oxiri asli men hech narsa izlamaganman, deya o'ziga-o'zi tasalli bera boshlagan, biroq bu tasallidan ko'nglining juda katta qirlari va qo'rg'onlari o'pirilib tushayotganini bilgan, umri xazonlik sari yuz tutgan odamning yuzigina ana shunday ko'kazak va jizzaki bo'ladi». X. uning yuziga qarab turib, umrini xaroba shahar bilan qiyoslaydi. Ehtimol, bu surat buzilgan va yovuzlashgan dunyodan mazmun, ma'no izlab o'tgan insonning samarasiz umri haqidagi o'kinchlaridir?! Ehtimol, umr qal'asining buzilgan devorlari ichra tutab yotgan yurakning alamnok

⁷⁴ N. Eshonqul. Momoqo'shiq. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2019.48-bet.

dudlaridir?! X. bularni o'ylar ekan, xaroba shahar suratiga boqqanida buni boshqa bir rassom chizganiga shubxalanib qoladi. Balki, bu rasmni o'zi chizib, o'zi sig'inib, o'zi vayron etgandir?

Hikoya qahramonlariga ism qo'yilmaganiga ham sabab shudir, balki. Chunki ularning bari asli bir odam. O'sha odam esa dunyodagi barcha insonlarning ruhiyati, hayoti umr sahifalarini ifodalaydi. Xaroba shaharni chizgan ham, qurgan ham, izlagan ham, unga ishongan ham, ishonmagan ham bir odam. Uni vayron qilgan ham xuddi shu insonning o'zi. «Odam qanday o'ylasa, shunday yozadi, aslida ham har bir odam o'z umrining rassomidir».

⁷⁵ Demak, Tursoriya shahri bu insonning o'zligi, yashab o'tgan umri. Lekin u vayron bo'lgan. Xarobaga aylangan. Ya'ni uning orzulari, baxtli o'tkazilishi mumkin bo'lgan umri vayron qilingan. Buni insonning o'zi vayron qilgan. Suratda ko'rinib turgan tutunlar inson yuragining kuyigidan chiqayotgan tutun. Hikoyada X. suratning yoniga borganida qandaydir dud va badan hidi kelishini aytadi. Va bu hidni hozirgina portlagan quyqum hidiga o'xshatadi. Chindan ham bu hid yonayotgan inson yuragining hididir, balki. «Tursoriya» bu «Susambil» edi. Inson unda baxtli yashashi ushalmas orzulariga yetishishi mumkin edi. Lekin uni inson o'zi vayron qildi. O'zligini unutib, umrini xaroba shahar holiga soldi. Hikoyaning yakunida X. g'oyib bo'ladi. U qoldirgan xatida Tursoriyani izlab ketgani haqida yozgandi. Xatni o'qigan do'sti esa «U o'zini izlab ketibdi», — deya ortiga qaytadi.

Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. U lar juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odalari, marosimlari asosida paydo bo'lgan.⁷⁶ O'zbek xalq og'zaki ijodida qahramonlar safarga o'tlanishiga, albatta, qandaydir turtki bo'ladi. Safardan maqsad har xil bo'lishi mumkin, hunar o'rganish, suratda ko'rgan yorini izlash, yoki shunchaki baxt izlab yo'lga chiqishadi. Biz suratdagi yorni qidirish degan joyiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ertaklarda, dostonlarda surat obraziga tez-tez duch kelamiz. «Ravshan» dostonida qahramon Zulxumorning uzukdagi suratini ko'rganidan so'ng, «Qorasoch pari» ertagida esa shahzoda Qorasochning qog'ozdagi suratini ko'rgach baxtini izlab yo'lga chiqadi. «Hunardan unar» ertagida esa gilamga chizilgan surat obrazi uchraydi. Har bir ertakda suratlar, albatta, qandaydir vazifa bajaradi. «Xaroba shahar surati» surati hikoyasida ham qahramon suratdagi Tursoriya shahrini izlab ketadi. Ertaklardagidan

⁷⁵ N. Eshonqul. Momoqo'shiq. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2019.50-bet.

⁷⁶ O. Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. "Musiq" nashriyoti. Toshkent. 2010. 202-bet.

farqi shundaki safarga o'tlanish hikoyaning boshida emas, yakunida sodir bo'lyapti. Lekin X.ning ham safaridan maqsad Tursoriyani ya'ni o'zligini, baxtini izlab topish. Lekin hikoyadagi qahramonning safari sirli o'lim deganidir. Hikoyadagi surat obrazi qahramonni o'zligini axtarib topish yo'lidagi safarga undagan.

«Xaroba shahar surati» hikoyasi Nazar Eshonqul ijodidagi falsafiy-badiiy yondashuvning yorqin namunasi bo'lib, unda inson ichki dunyosi, ruhiy holati chuqur tahlil qilinadi. Asardagi surat obrazi — bu oddiy tasvir emas, balki inson hayoti, orzu-umidlari, yo'qotishlari, ichki iztiroblari va o'zligini izlash yo'lidagi kechinmalarining timsolidir. Tursoriyaga bo'lgan munosabat orqali insonning o'z hayotini qanday qurgani va uni qanday xarobaga aylantirganiga e'tibor qaratiladi.

Muallif o'zligini anglash yo'lida yo'ldan adashgan, baxtni moddiyatda izlab, ruhiy tushkunlikka tushgan zamonaviy odam obrazini yaratadi. Suratdagi xaroba shahar inson umrining badiiy ramzi sifatida talqin etiladi: bu shahar — inson qalbi, u yashagan hayot, u barpo qilgan yoki buzib tashlagan o'zlik dunyosidir.

Qahramonning surat orqali o'z orzu-manzilini anglab, uni izlab safarga chiqishi — bu ertaklardagi baxt izlash yo'lidan farqli o'laroq, insonning o'z qalbiga sayohatidir. Ammo bu safar sirli, ichki bir halokat, ruhiy tanazzul yo'lga ham aylanishi mumkin. Asarda yozuvchi har bir inson o'z umrining rassomi, o'z Tursoriyasining quruvchisi va, afsuski, ko'pincha vayron qiluvchisi ham ekanini chuqur badiiy-falsafiy tilda bayon etadi.

Demak, hikoyaning asosiy xulosasi shundaki: inson o'zligini, hayotining ma'nosini anglashga intilmog'i, unga befarq bo'lmasligi kerak. Zero, bu befarqlik umrning xarobaga aylanishiga sabab bo'lishi mumkin. Hikoya har bir o'quvchini o'z «Tursoriyasi» haqida chuqur mulohaza yuritishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Eshonqul. Momoqo'shiq. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi:. Toshkent. 2019.
2. <https://tafakkur.net/susambil/xalq-ogzaki-ijodi.uz>.
3. O. Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. "Musiq" nashriyoti:. Toshkent. 2010.
4. A. Hojiyev. A. Nurmonov va boshq. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati:. Toshkent. 2001.